

**MATEMATIKA O'QITISHDA ILG'OR INNOVATSION METODLARDAN
FOYDALANISH**

Davlatkeldiyeva Dilnozaxon Odiljon qizi
Andijon tumani 33-umumiy òrta ta'lîm maktabi
Matematika fani òqituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktablarda matematika fanining o'qitilishi haqida, Shuningdek matematika fanini o'qitish va ushbu jarayonda foydalaniladigan zamonaviy metodlar hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Matematika, baliq skeleti metodi, pedagog, texnologiyalar, matematika, ilg'or texnologiyar, ta'lîm.*

Ta'lîm jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lîm samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyatga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyatni ko'p qirrali samara keltiradi. Shu sababdan ham maktab oldida innovatsion faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlar va nazariyalar, yangiliklarni yaratish, tatbiq etish va ulardan foydalanishning yaxlit, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga aylantirish talab etilmoqda. Xuddi shu kabi talim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiyaga amal qilina boshladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning markazida, o'_quvchi shaxsining mustaqil tafakkurlay olishga o'_rgatish masalasi turadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'_quvchilarning darsga bo_lgan munosabati va ilm olishga bo_lgan havasini oshiruvchi muhim turki bo_ladi, desak xato bo_lmaydi. Umumta'lîm maktablarida matematika o'_qitishning samaradorligini oshirish, vaqt, kuch va imkoniyatlarni tejash yo_llaridan biri mashg_ulot jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan unumli foydalanishdir. O'_quv xonasida kompyuter proektori bo_lgan o'_qituvchiga matematika o'_qitish jarayonini jadallashtirish, mashg_ulotni ko_rgazmali va jonli tarzda tashkil etish uchun beqiyos imkoniyatlar mavjuddir. Bugungi kunga kelib matematika darslarida kompyuterning bo_lishi real zaruratga aylanib qoldi. Matematika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtida ta_limni tashkil etishda rolli hamda ishbop oyinlardan samarali foydalanishga e_tibor berilmoqda. O_yin chog_ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o'_quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o_zlarini atrof muhitga bo_lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O'_quvchining nazariy bilimlarini amaliy ko_nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta_limiylar faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda o_yinlar o_ziga xos o_rin tutadi.

Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o'_quvchilar to'g'ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar. Maktabda matematika

o_qitishning asosiy vazifasi o_quvchi yoshiga mos kundalik turmushda va mehnat faoliyatida qo_llaniladigan, kelajakda ta‘lim olishni davom ettirishda zarur bo_lgan matematik bilimlar va ko_nikmalarini ongli ravishda mustahkam egallashni ta‘minlashdan iborat. Matematika o_qitish metodikasi fani bevosita falsafa, psixologiya, pedagogika, didaktika, matematika fanlari, chizmachilik, mantiq, tarix va boshqa fanlarga asoslanadi. Matematika fani nazariyasi va uni o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni tadqiqot qilishda matematika fani va uning o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zamonaviy ta‘limda ta‘lim oluvchi uchun dars jarayonidan tashqari vaqtarda ham o‘z ustida ishlashlari, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi.

Bizga ma'lumki, matematika darslarida o‘quvchilar o‘qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o‘rganadilar. Ular awalo kuzatishlar natijasida, so‘ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi. Matematika o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarda njustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir. O‘quvchilarda matematik tafakkumi va matematik madani-yatni shakllantirish. Matematika darslarida o‘rganiladigan har bir matematik xulosa qafiylikni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida juda ko‘p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O‘quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o‘rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatları shakllanadi. o‘quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bolgan fikrlarni simvolik tilda to‘g‘ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o‘z ona tillarida ifoda qila olishlariga o‘rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

Matematika fani o‘rganilishi jihatdan boshqa sohalarga nisbatan biroz qiyinroq bo‘lganligi uchun o‘quvchilarda bu sohaga qiziqish, o‘zlashtirish darajasi farq qiladi. Shuning uchun ham darslarda o‘quvchilarga yaqinroq bo‘lishga, qiziqarli misol, masalalar bilan boyitilishiga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, o‘quvchilarda teorema, yoki qiyinroq masalalarni hal etish davomida miyaning qabul qilish darajasi susayib, ularda zerikish alomatlari sodir bo‘la boshlaydi. Agar o‘qituvchi bu holatni o‘z vaqtida sezib, ularni bu holatdan chiqarishga harakat qilmasa, bu darsdan kutilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. "O‘qituvchi- kishi ruhining muhandisidir" deb bejiz aytilmagan. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchilar aqliy faoliyatini vaqt bilan o‘zgartirib turish xususiyatiga egadir.

Quyida matematika o‘qitishdagi qulay interfaol metodlardan ba‘zilarini ko‘rib o‘tamiz.
Kemaning marshrutini aniqlash.

Ta‘limiy maqsad: Ikki xonali sonlarni qo_shish va ayirish usullarini mustahkamlash.
Jihoz : Kemalarning rasmlari.

O‘yinning mazmuni : O_qituvchi magnit doskaga kemani rasmini qotiradi va sxematik ravishda (doirachalar bilan) pristanlarni (kema to_xtaydigan joylarni) tasvirlaydi. Har bir pristan (doiracha) o_z tartib nomeri bilan belgilanib, ularning tagiga boshqa pristanlarga marshrutlar shifrlangan misollarni yozib chiqadi.

Masalan :
75-12 ; 84-32; 45+14; 72+16;

96-34; 32+24; 32+14

O_qituvchi 1-komanda o_quvchilarini (dengizchilarni) navbatma-navbat doskaga chiqaradi. Birinchi o_quvchi kemani tagiga yozilgan misolni yechadi.

(72+16=88), strelka bilan kema qaysi pristanga borishni ko_rsatadi (88- pristan) u o_z kemasini yechilgan misol javobi bilan berilgan pristan (88- pristan)ga olib boradi. Ikkinci o_quvchi esa bu pristan tagidagi misolni yechadi. (96-32=64) va kemani 2-misol yozilgan pristanga olib boradi va h.k. Keyin o_quvchi 2-komanda uchun mo_ljallangan boshqa misollarni doskaga ko_rsatadi. O_yin shu tartibda davom etadi. Musobaqaning natijalariga yakun yasaladi.

Baliq skeleti metodi. Ta'rifi

Muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yechib ko`rishga imkon beradi.

Strategiya:

1. Bir varaq oq qog`ozda (vatman yoki A-3 varag`i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg`alari).

2. Yuqoridagi «suyagiga» muammo ifodalanishi, pastidagiga esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo`llari, o`qituvchi o`z oldiga qo`ygan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo`yiladi.


3. To`ldirilgan sxemaning taqdimoti. Foydalanish doiralari

Tabiiy va aniq fanlarda, muammoli ta'lim berish uslubidan foydalanganda. Afzalliklari

Ushbu sxema muammolarning o`zaro bog`liqligi, ularning kompleks xususiyatlarini aks ettiradi.

Qiyinchiliklar

Muammolarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.



Sinkveyn - fransuz tilida —5 qator ma'nosini bildiradi. Sinkveyn ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo_lib, unda o_rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqeа, mavzu) to_g_risidagi axborot yig_ilgan holda, o_quvchi so_zi bilan turli variantlarda va turli nuqtayi nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish qoidalari: Sinkveyn tuzish- murakkab g_oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so_zlar bilan ifodalash uchun muhim bo_lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

1- qator: Mavzu bir so_z bilan ifodalanadi (Tarbiya tanlanadi).

2- qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3- qator: Mavzu doirasidagi xatti-harakatni uchta so_z bilan ifodalanadi (3 ta gap yoki yoziladi).

4- qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to_rtta so_zdan iborat bo_lgan fikr yoziladi.(4 ta so_zdan iborat jumla yoziladi).

5- qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma‘nosi unga yaqin bo_lgan bitta so_z yoziladi.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida interfaol metodlardan samarali foydalanish o'quv materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi. O'quvhilar matematika fanini puxta o'zlashtirishi uchun pedagog mustaqil yo'naltira oladigan materiallardan samarali foydalanishi, darsni qiziqarli o'tishi lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining —Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida gi qonun // Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: Sharq, 1997, 31-61 bet.
2. Axmedov M, Abduraxmonova N, Jumayev M. Matematika.O'qituvchi kitobi.- Toshkent-2003.
3. Hojiyev A., Faynleyb A. Algebra va sonlar nazariyasi. - T.: O'zbekiston, 2001.5. 4.
- Alixonov S. Matematika o_qitish metodikasi. – T., O_qituvchi, 1992.
5. Axmedov M va boshqalar Matematika 1, Toshkent.: O'zinkomsentr, 2003, 160-bet.